


## XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarining o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 462,8 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga oshdi.

O'rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 2 173 ta korxona va tashkilotlarda tashkil qildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, ming so‘m

(2024-yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)



### SANOAT SOHASIDA



### QURILISH SOHASIDA




### SAVDO SOHASIDA



### TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA




 Yanvar- Sentabr

**8 912,9**  
ming so‘m



## BANK, SUG‘URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA



 Yanvar- Sentabr

**13 583,5**  
ming so‘m



## TA’LIM SOHASIDA




 Yanvar- Sentabr

**3364,6**  
ming so‘m



## SOG‘LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR SOHASIDA



 Yanvar- Sentabr

**3 417,8**  
ming so‘m



**2024-yilning yanvar-sentabr oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqininig iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tahlili:**  
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*



**Sanoat** sohasidagi 66 ta korxona va tashkilotlarda 48,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,7 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 2 839,5 mlrd. so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 31,7 %) tashkil etdi. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 6 423,9 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga o‘sdi.

**Qurilish** faoliyat turidagi 27 ta korxonada 1,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,8 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 62,9 mlrd. so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 4 243,9 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 12,6 % ga o‘sdi.



**Savdo** faoliyat turidagi 22 ta korxonada 1,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,8 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 69,8 mlrd. so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 4 007,7 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 15,4 % ga o‘sdi.

**Tashish va saqlash** faoliyat turidagi 11 ta korxonada 0,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 36,8 mlrd. so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 4 918,4 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 18,7 % ga o‘sdi.



### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

sohasidagi 3 ta korxonada 0,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 3,9 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,04 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 095,8 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 15,5 % ga pasaygan.



### **Axborot va aloqa sohasidagi 9 ta korxonada**

0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 76,4 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 8 912,9 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 18,7 % ga o'sdi.

### **Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik**

iqtisodiy faoliyat turidagi 25 ta korxonada 3,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,7 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 520,7 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 13 583,5 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 19,4 % ga o'sdi.



### **Ta'lim sohasi iqtisodiy faoliyat turidagi**

1 501 ta korxonada 95,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 42,6 %) xodimlar o'z faoliyatini yuritgan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 2 873,0 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 32,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 364,6 ming so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 13,3 % ga o'sdi.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi** dagi 71 ta korxonada 45,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,0 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 409,6 mlrd. so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 15,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 417,8 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga o‘sdi.




**San’at, ko‘ngil ochish va dam olish sohasidagi** 71 ta korxonada 2,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 57,2 mlrd. so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 3 115,3 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga o‘sdi.

**Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi** 738 ta korxonada 23,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,5 %) xodimlar o‘z faoliyatini yuritgan bo‘lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar 1 000,3 mlrd. so‘mni (jami mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 11,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal ish haqi 4 668,4 ming so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,7 % ga o‘sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng yuqori o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 13 583,5 ming so‘mni tashkil etdi. Shuningdek yuqori ko‘rsatkichlar sanoat faoliyat turida (6 423,9 ming so‘m) hamda axborot va aloqa faoliyat turida (8 912,9 ming so‘m) kuzatildi. Eng past ko‘rsatkich esa Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar faoliyat turida kuzatildi va 2 095,8 ming so‘mni tashkil etdi.




**Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2024-yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlarisiz,  
ming so‘mda)**



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bolsak, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (7 380,1 ming so‘m), Andijon shahrida (5 771,5 ming so‘m) kuzatildi. Aksincha, Bo‘ston va Baliqchi tumanlarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo‘ldi.


**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati  
(2024-yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlarisiz, foizda)**



**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda*

	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	O‘sish sur’ati, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 841,9</b>	<b>4 462,8</b>	<b>116,2</b>
<i>Shaharlar</i>			
Andijon sh.	4 904,4	5 771,5	117,7
Xonobod sh.	3 813,5	4 323,2	113,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko‘l	3 037,8	3 182,2	104,8
Andijon	2 979,4	3 146,9	105,6
Baliqchi	2 388,0	2 595,6	108,7
Bo‘ston	2 443,3	2 706,9	110,8
Buloqboshi	2 538,0	2 791,6	110,0
Jalaquduq	2 725,9	2 936,6	107,7
Izboskan	3 411,5	4 066,6	119,2
Ulug‘nor	2 522,1	2 735,7	108,5
Qo‘rg‘ontepa	2 977,1	3 347,9	112,5
Asaka	5 870,4	7 380,1	125,7
Marhamat	2 841,0	3 036,1	106,9
Shahrixon	2 716,0	3 312,5	122,0
Paxtaobod	3 078,1	3 301,5	107,3
Xo‘jaobod	2 522,9	2 776,8	110,1


**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining  
viloyat ko'rsatkichiga nisbati foizda**  
(2024-yil yanvar-sentabr oylarida, qishloq xo'jaligi  
va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darjasini Asaka tumani (7 380,1 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 65,4 % ga yuqori), Andijon shahri (5 771,5 ming so'm 29,3 % ga yuqori)da kuzatilgan bo'lsa, Baliqchi tumani 2 595,6 ming so'm viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 41,8 % ga past) va Bo'ston tumani (2 706,9 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 39,3 % ga past)da kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:**

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2023 yil Sentabr oyidan **1 050 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 23-nayabrdagi Q 65-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni** – oyning ma'lum bir sanasiga, ya'ni birinchi yoki oxirgi sanasiga ko'rsatiladi. Bunda haqiqatda ishlayotganlar, vaqtincha ishlamayotgan, biroq ishga rasman biriktirilganligi huquqini saqlab qolganlar ham hisobga olinadi. Bitta tashkilotning ichida ichki o'rindosh sifatida rasmiylashtirilgan xodim bir kishi sifatida hisobga olinadi. Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va boshqa mehnatga oid qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda keltirilganlar kiritiladi.

Quyidagi xodimlar mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga kiritilmaydi: boshqa tashkilotlardan o'rindoshlik bo'yicha ishga qabul qilinganlar; fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar; tashkilot tomonidan, ishdan ajralgan holda, ta'lim muassasalariga yuborilganlar.

**O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni** – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

**Ish vaqtি-** korxona yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqtি davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqtি deyiladi.

**Ish haqi-** joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

**Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar-** Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.